

## CHET TIL O'RGATISH JARAYONIDA AUDITORIYANI BOSHQARISH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

*Ibragimova Dilorom Abduraxmonovna*

*Farg'ona davlat universiteti, xorijiy til va adabiyot(ingliz tili)1-kurs magistranti*

*Ahmedova Matluba Ibragimdjonovna*

*Farg'ona davlat universiteti, ingliz tilini o'qitish metodikasi kafedrasida*

*katta o'qituvchisi, PhD*

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada chet til o'rgatish jarayonida darsni boshqarish sohasidagi tadqiqotlar ko'rib chiqiladi. Jumladan chet til darslarida auditoriya boshqaruviga ko'proq ta'sir ko'rsatadigan chet tilni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari, chet til o'qituvchilari odatda o'z amaliyotlarida duch keladigan auditoriyani boshqarish bilan bog'liq muammolar, chet til darslarida auditoriya boshqaruvining salbiy ta'sirini kamaytirish uchun turli muqobil variantlarga e'tibor qaratilgan. Xulosalar, ayniqsa, auditoriyani boshqarish va o'qitish usullari kabi jihatlar o'rtasidagi munosabatlar bo'yicha ko'proq tadqiqotlar o'tkazish zarurligi ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** chet til o'rgatish jarayoni, auditoriyani boshqarish, avtoritar yondashuv, kooperativ yondashuv, bixevioristik yondashuv.

perspective planning – bu auditoriyani boshqarishni rejalashtirish,

thematic planning – lesson plan, til o'rgatishni rejalashtirish.

### **Kirish**

**Auditoriyani boshqarish** o'qituvchilar, xususan, oliygohni endigina tamomlab kelgan o'qituvchilar odatda auditoriyani boshqarishda muammoli vaziyatlarga duch keladilar. Bu o'qituvchi kadrlarni tayyorlash jarayonida oliygohda o'rgatilgan ideal darslarni tashkil qilish prinsiplarining maktab hayoti haqiqati bilan hamisha ham mos kelmasligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin, bu jarayon esa ularning maktab muhitiga moslashishlarida katta kuch sarflanishini talab etadi. Sinf intizomi, individual farqlar, o'rganish uslublari va qobiliyatlari turli xil o'quvchilar bilan ishlash, sinf ishini tashkil etish, ota-onalar bilan munosabat o'rnatish, o'quv materiallarining yetarli emasligi, sinfda o'quvchilar sonining belgilangan me'yordan ko'pligi, o'tirish tartibi, shovqin, ijtimoiy va madaniy tadbirlar kabilar odatda o'qituvchilarning ta'lim jarayonini tashkil qilishlariga, ayniqsa, o'qitishning dastlabki yillarida to'sqinlik qiladi. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida auditoriyani boshqarish bo'yicha olib borilgan ko'plab tadqiqotlarga qaramasdan, chet til o'rgatish jarayonida auditoriyani boshqarish masalalari o'zbekzabon auditoriyalarda psixologik va didaktik nuqtai-nazardan yetarlicha tadqiq qilinmagan.

Davom etishdan avval auditoriyani boshqarish tushunchasiga murojaat qilmoqchiman. Jere Edward Brophy auditoriya boshqaruvini “Muvaffaqiyatli ta’lim uchun qulay bo’lgan o’quv muhitini yaratish va qo’llab-quvvatlash bo’yicha amalga oshiriladigan harakatlar” deb atagan.<sup>1</sup> Marzano bo’lsa auditoriyani boshqarishni “Muvaffaqiyatli o’qitish uchun qulay sharoit yaratish va qo’llab-quvvatlash bo’yicha amalga oshiriladigan harakatlar” deb atagan va to’rtta yo’nalish: qoidalar va tartiblarni o’rnatish va kuchaytirish, intizomiy choralarni ko’rish, samarali o’qituvchi va talaba munosabatlarini shakllantirish va boshqaruv uchun oqilona usulni tanlay bilish ekanligini ta’kidlab o’tgan.<sup>2</sup> Xuddi shunday, Walter Doyle “Auditoriya boshqaruvi odatda ta’lim berishning zaruriy sharti, ta’limning yuzaga kelishi uchun sharoit yaratish usuli” deb ta’kidlagan.<sup>3</sup> Muxtasar qilib aytganda, auditoriyani boshqarish haqidagi dastlabki qarashlarning aksariyatida o’qitish va natijada o’rganish sodir bo’lishi uchun sinfda zarur muhitni yaratishga urg’u berilgan.

Ijobiy va samarali o’quv muhitini yaratish uchun sinfni samarali boshqarish juda muhimdir.

### **Chet til o’qitishga yondashuvlar**

Oldingi nazariy yondashuvlar va modellar chet til o’qitishning ko’plab usullariga asos bo’lib xizmat qildi. Richards C. Jek va Rodgers S. Teodor ushbu sohadagi eng muhim o’qitish usullarining xronologiyasini belgilab berdi. Grammatikaga asoslangan metodologiyalar grammatika qoidalarini tahlil qilish va yodlash, matnlarni o’z tilga va undan tashqariga tarjima qilish, o’rganilayotgan tilda o’qish va yozish, o’quvchilarning ona tilidan foydalanish, grammatikani deduktiv usulda o’rgatish kabi jihatlarga urg’u berdi. Umuman olganda, chet tilini o’qitishda grammatikaga asoslangan o’qitish usullaridan ko’proq kommunikativ yondashuvlarga o’tish kuzatildi. Shu jihatdan chet til o’qituvchilari kommunikativ qobiliyati o’ziga xos pedagogik shart-sharoitlarni o’z ichiga oladi. Chunki o’quvchi o’z ona tili, o’z Vatani, urf-odatlarini, an’analarini, ma’naviy qadriyatlarini bilan bir qatorda o’zga millat tili, o’zga yurt madaniyati, qadriyatlarini ham bilishi, qiyosiy tahlil qilishi, xulosa chiqarishi, qaror qabul qilishi zarur. Bu o’rinda o’qituvchining pedagogik refleksiya ( fikr almashuvi), pedagogik ta’sir ko’rsatishi oquvchining fan bo’yicha chuqur bilim egallashi omili hisoblanadi.

Auditoriyani samarali boshqarish til o’rganivchilar uchun ijobiy ta’lim muhitini yaratishning kalitidir. O’qituvchilar bunga erishish uchun o’quvchilarning shaxsiyati,

---

<sup>1</sup> Brophy, J. (2006). History of research on classroom management. In C. M. Evertson & C. S. Weinstein (Eds.), Handbook of classroom management: Research, practice, and contemporary issues (pp. 17-43).

<sup>2</sup> Marzano, R. J. (2003). What works in schools: Translating research into action. Alexandria, US: Association for Supervision and Curriculum Development.

<sup>3</sup> 5. Doyle, W. (1984). How order is achieved in classrooms: An interim report. Journal of Curriculum Studies, 16(3), 259-277.

til o'rganish uslubi va ularining ehtiyojlariga qarab turli xil yondashuvlardan foydalanadilar.

Auditoriyani boshqarishga yondashuvlardan biri bu *avtoritar yondashuvdir*. Bu yondashuv o'quvchilarning xulq-atvorini qattiq nazorat qilishni va ijobiy mustahkamlashga emas, balki jazoga e'tibor qaratishni o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuvdan foydalanadigan o'qituvchilar ko'pincha o'z o'quvchilariga juda katta talablar qo'yadilar, o'z qoidalarini bajartirish uchun qo'rqitishdan foydalanishlari mumkin. Bunday yondashuv ba'zi vaziyatlarda samarali bo'lishi mumkin, lekin u o'quvchilar orasida norozilik va isyonga olib kelishi mumkin.

Yana bir yondashuv - *kooperativ yondashuv*. Ushbu yondashuv o'quvchilar o'rtasida hamkorlik va jamoaviy ishlashga urg'u beradi. Ushbu yondashuvdan foydalanadigan o'qituvchilar sinfda hamkorlik tuyg'usini yaratadilar, o'quvchilar qo'llab-quvvatlanishi va qadrlanishini his qiladilar. Shuningdek, bu yondashuv tarafdorlari til o'rganuvchilarni muammolarni hal qilish va bir-biridan o'rganish uchun birgalikda ishlashga undaydilar.

Shunday ekan, auditoriyani boshqarishda turli xil yondashuvlar mavjud va eng samarali yondashuv, albatta o'qituvchining shaxsiyati, o'qitish uslubi va o'quvchilarining ehtiyojlariga qarab tanlangan yondashuvdir. Auditoriyani samarali boshqarish tizimlilik, qo'llab-quvvatlash va moslashuvchanlikni talab qiladi. Qo'llaniladigan yondashuvdan qat'iy nazar, auditoriyani samarali boshqarish o'quvchilar muvaffaqiyatiga yordam beradigan ijobiy o'quv muhitini yaratish uchun muhim ahamiyatga ega.

### **Chet til o'qitish jarayonida auditoriyani bosqarish.**

Chet til o'qitish jarayonida auditoriyani bosqarish haqida turli jurnallarda (masalan, Teaching and Teacher Education, and System) va mavzuga oid maxsus jurnallarda (masalan, ELT Journal and Foreign Language Annals), Brofining “History of research on classroom management” asarining “Sinfni boshqarish bo'yicha qo'llanma” bobida ham umumiy ta'lim nuqtai nazaridan bo'lsa-da, auditoriyani boshqarish bo'yicha adabiyotlarning yaxshi tarixiy sharhi berilgan.

Umumiy o'rta ta'limda auditoriyani boshqarish bo'yicha katta hajmdagi adabiyotlarda chet til o'qitish jarayonida auditoriyani boshqarish bo'yicha tadqiqotlar sezilarli darajada tadqiq etilmaganligi ko'rinadi.

Auditoriyani boshqarishning muhim jihatlaridan biri o'quvchilarning xatti-harakatlarini boshqarishdir. Bu, ayniqsa, chet til o'qitish jarayonida qiyinchilik tug'diradi, chunki o'quvchilar til qobiliyatlari, ma'naviy dunyosi va ijtimoiyashuv

jarayonidagi tafovutlar tushunmovchiliklarga sabab bo'lishi mumkin. O'qituvchilar bu muammolarni turli xil strategiyalar, masalan, vizual belgilar, noverbal, aniq va qisqa ko'rsatmalardan foydalangan holda hal qilishlari mumkin. Bundan tashqari, o'qituvchilar yaxshi xulq-atvorni mustahkamlash va salbiy xatti-harakatlarni to'xtatish uchun ijobiy xatti-harakatlarni qo'llab-quvvatlovchi rag'batlantirish metodlaridan foydalanishlari mumkin.

Yaxshi o'quv muhiti ko'plab omillarni talab qiladi, ayniqsa auditoriyani boshqarish rejasini mukammal tuzishni. Agar o'qituvchi ushbu rejani yaxshi tuzsa, auditoriyani tartibga solish oson bo'ladi, shuningdek, o'qitish jarayonining sifati yangi bosqichga ko'tariladi.

Xo'sh, auditoriyani boshqarish rejasi nima?

*Oddiy qilib aytganda, auditoriyani boshqarish rejasi talabalarga o'z xatti-harakatlarini tushunish, ularga rioya qilish va mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga yordam beradigan qoidalar/ko'rsatmalarni o'z ichiga olgan rejadir.*

Xususan, u qoidalar va tartiblardan tortib sinfning kun davomida qanday ishlashi rejasigacha bo'lgan tafsilotlar darajasini o'z ichiga oladi.

Shunday qilib, auditoriyani boshqarish rejasi odatda quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

- Auditoriyani boshqarish rejasini tuzishdan oldin maktabingiz ustavi va ichki tartib-qoidalari bilan tanishib chiqing.
- Sinfidagi xulq-atvor standartlari deb ataladigan ushbu auditoriyani boshqarish qoidalarini til o'rganuvchilarga tushuntiring.
- O'qituvchilar va til o'rganuvchilar o'rtasidagi chegaralarni belgilang.
- O'quvchilar hayotini, qiziqishlarini, kuchli va zaif tomonlarini hurmat qiling.
- Og'zaki va noverbal muloqotdan foydalaning.
- O'quvchi til organish jarayonida faol bo'lsa, ijobiy xatti-harakatlarni rag'batlantiring.
- Har bir talabaning o'ziga xos shaxsiyati va o'rganish uslubi bo'lganligi sababli turli innovatsion o'qitish usullaridan foydalaning.
- Auditoriyani samarali boshqarish uchun ota-onalar bilan hamkorlikni to'g'ri yo'lga qo'ying.
- O'quvchilarning o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun qiziqarli va tegishli kontentni taqdim eting. Bu o'quvchilarning yoshi va madaniyati, qiziqishlari va qobiliyatiga mos materiallarni tanlashni anglatadi.
- O'quvchilarni hamkorlikda ishlashga va bir-birini qo'llab-quvvatlashga undash uchun guruh va juftlik kabi hamkorlikda o'qitish usullaridan foydalaning.

• Darslar samaradorligini yaxshilash va til o'rganuvchilarning diqqatlarini jalb qilish uchun interfaol doska, video va onlayn resurslar kabi texnologiyalardan ham foydalaning.

Lekin qanday texnika yoki rejaga yondashmang, shuni unutmangki, o'qituvchi oxir-oqibat o'quvchilarga namuna bo'lib qoladi!

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytish mumkinki, chet til o'qitishda auditriya boshqaruvini takomillashtirish ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi, u ijobiy sinf muhitini yaratish, o'quvchilarning xulq-atvorini boshqarish, qiziqarli va tegishli kontentni taqdim etishni o'z ichiga oladi. Ushbu strategiyalarni amalga oshirish orqali o'qituvchilar til o'rganuvchilarning muvaffaqiyati va yutuqlari uchun qulay bo'lgan o'quv muhitini yaratishi mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Allwright, D., & Bailey, K. M. (1991). Focus on the language classroom. Cambridge, UK: Cambridge University Press. [ Links ]
2. Balli, S. J. (2009). Making a difference in the classroom: Strategies that connect with students. Lanham, US: Rowman and Littlefield. [ Links ]
3. Bateman, B. E. (2008). Student teachers' attitudes and beliefs about using the target language in the classroom. *Foreign Language Annals*, 41(1), 11-28. <https://doi.org/10.1111/j.1944-9720.2008.tb03277.x>. [ Links ]
4. Brophy, J. (2006). History of research on classroom management. In C. M. Evertson & C. S. Weinstein (Eds.), *Handbook of classroom management: Research, practice, and contemporary issues* (pp. 17-43). New York, US: Routledge.
5. Doyle, W. (1984). How order is achieved in classrooms: An interim report. *Journal of Curriculum Studies*, 16(3), 259-277. <https://doi.org/10.1080/0022027840160305>.
6. Farrell, T. S. C. (2003). Learning to teach English language during the first year: Personal influences and challenges. *Teaching and Teacher Education*, 19(1), 95-111. [https://doi.org/10.1016/S0742-051X\(02\)00088-4](https://doi.org/10.1016/S0742-051X(02)00088-4).
7. Lewis, M. (2002). Classroom management. In J. C. Richards & W. A. Renandya (Eds.), *Methodology in language teaching: An anthology of current practice* (pp. 40-48). New York, US: Cambridge University Press. <https://doi.org/10.1017/CBO9780511667190.007>.
8. Marzano, R. J. (2003). *What works in schools: Translating research into action*. Alexandria, US: Association for Supervision and Curriculum Development.
9. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2001). *Approaches and methods in language teaching*. New York, US: Cambridge University Press. <https://doi.org/10.1017/CBO9780511667305>.
10. Wright, T. (2005). *Classroom management in language education*. New York, US: Palgrave MacMillan. <https://doi.org/10.1057/9780230514188>.
11. Usmonova, S., & Temirova Madinabonu Abrorjon qizi. (2023). Ingliz tilini o'rgatish jarayonida madaniyatlararo muloqot etiketini rivojlantirish metodikasi. *Pedagogs jurnali*, 33(3), 25-127.
12. Turayeva, D. (2022). Developing communicative skills in English language through extra-linguistic sources. *Образование наука и инновационные идеи в мире*, <http://newjurnal.org> №6197-9562-18b5-0086-e8a9-8187-3058 2022-10-28